

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDUVOHIDOV BEHZOD

**ISHBILARMONLIK MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Abduvohidov Behzod

Ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish..... 3

Абдувохидов Бехзод

Развитие малого бизнеса и частного предпринимательства путем совершенствования деловой среды..... 29

Abduvohidov Behzod

Developing small businesses and private entrepreneurship by improving the business environment..... 57

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMUY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDUVOHIDOV BEHZOD

**ISHBILARMONLIK MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusl Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.4.PhD/Iqt4818 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karrieva Yakutdjan Karimovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yusupov Ravshanbek Aminbayevich
iqtisod fanlari nomzodi dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «12» 11 soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (12 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «13» 11 kuni tarqatildi.
(2025-yil «13» 11 dagi №60 raqamli reyestr bayonnomasi).



G.K. Abdurahmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
professor

O.D. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kutubxona id. professor

Sh.A. Allayarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon iqtisodiyotida ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinalarini yaratish, innovatsiyaviy faollikni kuchaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga egadir. Tadbirkorlik uchun qulay institutsional muhit yaratilishi, soddalashtirilgan litsenziyalash va soliq tizimlari, moliyaviy resurslarga yetarli kirish imkoniyati hamda mulk huquqlarining kafolatlanishi kichik biznes subyektlarining samarali faoliyatiga asos bo'ladi. Jahon bankining hisobotida ta'kidlanishicha: "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy sektorga asoslangan o'sishni rag'batlantirish uchun biznesga qulay tartibga solish muhitini yaratish juda muhim hisoblanadi"¹. Bu esa, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali xususiy sektor faolligini kuchaytirish va iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta'minlash imkonini yaratadi.

Jahonda tadbirkorlik subyektlari uchun institutsional to'siqlarni bartaraf etish, investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushini oshirish orqali barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlikni ochish va yuritish jarayonlarini soddalashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, litsenziya va ruxsatnomalar tizimini avtomatlashtirish, soliq yukini optimallashtirish, xususiy mulk huquqlarini huquqiy muhofaza qilish mexanizmlarini kuchaytirish hamda moliyaviy resurslardan teng va shaffof foydalanish imkoniyatlarini yaratish kabi masalalar ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda keyingi yillardagi jadal islohotlar natijasida sifat va miqdor jihatidan samarali bandlikni ta'minlashga yo'naltirilgan yangi tizim shakllandi. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish, mahalla hududida davlat-xususiy sheriklik asosida o'qitish markazlari, tadbirkorlik obyektlari kabi infratuzilmani yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi institutining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish" vazifalari dasturulamal sifatida xizmat qiladi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda "ishbilarmon tadbirkorlik" tushunchasining ilmiy-uslubiy asoslarini kengaytirish, tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini aks ettiruvchi faoliyat samaradorligi chegaralari baholash shkalasini kiritish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot va uning asosiy tarmoqlaridagi hamda jami bandlikdagi

¹ <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/32436>

ulushining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi PQ-8-son “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga hisobot va statistik ma’lumotlarni taqdim etish jarayonlarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 21-apreldagi PQ-5087-son “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-son “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 20-noyabrdagi PQ-4525-sun “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me’oriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitining mohiyati, bandlik modellari, ishbilarmonlikka omillar ta’siri, ishbilarmonlik ko‘rsatkichlarini takomillashtirish va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samaradorligini oshirish hamda ekonometrik tadqiq asosida modellashtirish borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu borada xorijiy olimlardan R.Kantilon, J.B.Sey, J.B.Klark, Y.Shumpeter A.Marshall, J.Keyns, R.Xizrich, M.Piters, F.Xaek, M.Lapusta, K.Makkonnell, S.Bryu va boshqalarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, J.Keyns tomonidan bandlikning neoklassik modeli, J.Forrester tomonidan jahonning iqtisodiy o‘sish modellari ishlab chiqilgan, M.Porter, R.Dornbush, S.Fisher va G.Menkyu aholi bandligini o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy o‘sish modellarini asoslab bergenlar, Ernando de Soto tomonidan esa norasmiy bandlik ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida kiritilib, uni yuzaga keltiruvchi omillar asoslab berilgan².

² Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. / Дж. М. Кейнс. – М.: ЭКСМО, 2007. Форрестер Дж. Мировая динамика. – М.: Наука, 1978. Порттер М. Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / Пер. с англ. Е. Калининой. – М.: «Альпина Паблишер», 2008. – 720 с.; Дорнбуш Р., Фишер С. Макроэкономика. 784с.; Мэнкью, Г.Н. Принципы экономикс / Г.Н.Мэнкью; 1999. – 780 с. Де Сото Эрнандо. Невидимая революция в третьем мире. – М.: Catallaxy. 1995. Кантильон Р. Основы предпринимательской деятельности.- М.: 1994. – 144 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.:1982. 230 с.; Хизрич Р. Питерс М. Предпринимательство. Вып 1. –М.: 1998.–126 с.; Сей Ж.Б. Трактат политической экономии – М.: Экономика. 1980.-217 с.; Хоскинг А. Курс предпринимательства.- М.: Международные отношения, 1993. - 273 с. Акофф Р. Искусство решения проблем. – М. Мир, 1992. – 224с.; Водачек Л., Водачкова. Стратегия управления инновациями на предприятии. – М.: Экономика, 2004.-365с.; Друкер П. Управление бизнесом. – М.: Альпина Диджитал, 2016. -250 с.; Мизес Л.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishbilarmonlik muhiti orqali takomillashtirish omilli tahlili va ularni tartibga solishning nazariy jihatlari A.I.Rofe, Yu.D.Odegov, S.A.Aronova, A.M.Moiseev, S.G.Rezinkina, S.Shishin, E.Smirnov, V.Rube, V.Lomakin, I.Fomichev, Ye.V.Semerikova singari olimlar tomonidan atroficha o'rganilgan³.

Ushbu tadqiqotlarda olimlar ishbilarmonlik va uning xususiyatlari, shakllari va turlari, yuzaga kelish sharoitlarini nazariy jihatdan o'rganib (Staley.E, Morse.R), ishbilarmonlikka omillar ta'siri (Robert Blackburn, Dirk De Clercq, Jarna Heinonen), ishbilarmonlik jarayonini omilli tahlil qilish asosida modellashtirish (P.Davidsson) kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish (L.P.Dana) masalalarini amaliy jihatdan baholashga e'tibor qaratganlar.

O'zbekistonda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish, davlat tomonidan tadbirkorlarga keng imkon yaratish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash haqida ko'pgina mahalliy olimlarimiz o'zining tadqiqot ishlarini olib borgan, xususan, M.Sh.Sharifxo'jayev, A.O'lmasov, Q.X.Muftaydinov, O.A.Aripov, U.V.Gafurov, D.S.Qosimova, H.P.Abulqosimov, A.Qulmatov, Yo.Abdullayev, F.M.Karimov, R.X.Xodjaev, A.A.Fattaxov, N.Q.Yo'ldoshev, Sh.J.Ergashxodjayeva, Sh.Yuldashev, M.S.Qosimova, B.K.G'oyibnazarov, I.A.Bakiyeva, A.N. Samadov, M.P.Eshov singari oimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan⁴.

Biroq, ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni beqarorligi, ishbilarmon tadbirkorlik muhitini muhofazalash funksiyasi, kambag'allik muammosini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning

Теория и история: Интерпретация социально-экономической эволюции. –М.: Юнити-дана, 2001 -295 с.; Хайек Ф. Право, законодательство и свобода. –М.: Ирисэн, 2006. -220 с.

³ Экономика труда: учебник / А.И.Рофе. –2-е издание. – М.: КНОРУС, 2011. –392 с.; Экономика труда: учебник / Ю.Г.Одегов, Г.Г.Руденко. –М: ParaType, 2010. –792 с.; Аронова С.А. Качество рабочей силы и факторы его формирования (монография). – Орел: Орловский государственный университет, 2004.; Программно-целевое управление развитием образования: опыт, проблемы, перспективы/ Под ред. А.М.Моисеева. – М.: Педагогическое общество России, 2001. –256 с.; Резинкина С.Г. Модели анализа занятости и безработицы в России. Автореферат докторской на соискание уч. степ. канд. экон. наук. – Ростов-на-Дону, РГЭУ “РИНХ”, 2004 г. – 28 с.; Семерикова Е.В. Использование пространственной зависимости в региональных исследованиях на примере анализа безработицы в России и Германии. Автореферат докторской на соискание уч. степ. канд. экон. наук. – М.: МГУ, 2017 г. – 28 с.

4. Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. Т.: Мехнат, 1995. 192-б.; Муфтайдинов К. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари: Дис. ... иқт. фан. д-ри. Т., 2004. 18 б.;Faфуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш: Дис. авт. реф... иқт. фан. д-ри. Т., 2017. 30 б.; Абулқосимов П., Кулматов А. Тадбиркорлик сермашақкат фаолият // Иқтисод ва хисобот. 1997. 9-сон. 9 б.; Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. Т.: Мехнат, 2010. 349 б.; Абдуллаев Ё., Юлдашев Ш. Малый бизнес и предпринимательство. Т.: Iqtisod-Moliya, 2008. 339 с.; А.Фаттахов. Бизнес маркетинги: Дарслик. Т.: Iqtisod-Moliya, 2007. 308 б.; Йўлдошев Н.К. Савдо тадбиркорлиги: Ўқув қўлланма. Т.: TSEU, 2007.152 б.; М.С.Қосимова, Ш.Ж.Эргашходжаева, Б.К.Ғойибназаров, А.Н.Самадов, Р.Ходжаев. Кичик бизнес ва тадбиркорлик: Ўқув қўлланма. Т.: Иқтисодиёт, 2010. 275 б.; Ходжаев Р., Эгамбердиев А. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. Т.: Iqtisod-Moliya, 2008. 105 б.; Гуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. Т., 2008. 365 б. Бакиева И.А. Ўзбекистон енгил саноатида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш: Дис. ... иқт. фан. номз. Т., 2012.; Эшов М.П. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожлашиши омиллар, натижалар ва истиқболлар: Монография. Т.: Маънаият, 2017. – 80 б.

iqtisodiyot va uning asosiy tarmoqlaridagi ulushini aniqlash hamda unga ta'sir etuvchi omillar asoslariga ta'sirini baholash uslubiyati yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1 "Ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati va ijtimoiy funksiyalarini o'rganish;

ishbilarmonlik muhiti tushunchasi, tarkibi va rivojlanish bosqichlari nazariyalarini o'rganish;

ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga oid xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish;

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining tendensiylarini o'rganish;

O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitini holati va kichik biznes subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari xo'jalik faoliyatini prognozlash;

istiqbolda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlarini takomillashtirish;

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash istiqbollari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy-statistik, solishtirma tahlil, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, ekonometrik tahlil, iqtisodiy prognozlashtirish usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "ishbilarmon tadbirkorlik" tushunchasining iqtisodiy mazmuni tadbirkorlik faoliyatini huquqiy, tizimli va innovatsion tarzda boshqarish, yangi imkoniyatlar yaratish, risklarni baholash, tashkiliy, iqtisodiy va tarixiy ixtisoslashuv doirasidagi iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yish asosida aholi bandligi va daromadini oshirishga yo'naltirilgan, o'z ichiga ijtimoiy munosabatlarni

qamrab olgan mexanizm hamda ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida takomillashtirilgan;

mazmuni jihatdan samarali faoliyat ko'rsatayotgan ishbilarmon tadbirkorlarning iqtisodiy faoliyatini baholash uslubi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini aks ettiruvchi faoliyati samaradorligini "xatarli" ($0 < FS_X \leq 59$), "maqbul" ($60 \leq FS_M \leq 69$), "o'rta" ($70 \leq FS_O \leq 89$), "yuqori" ($90 \leq FS_M \leq 100$) chegaralarida baholash shkalasini kiritish orqali takomillashtirilgan;

uslubiy yondashuvga ko'ra "ishbilarmon tadbirkorlik muhitini muhofazalash funksiyasi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni muhit maydonida bo'lgan obyektni tashqi va ichki funksiyasini salbiy ta'sirlardan himoyalash jihatidan, turli huquqiy kafolatlarning o'rnatilishi, korxonalarining moliyaviy nochor holatga tushib qolishining oldini olish, siyosiy jarayonlarning turli ehtimoliy ta'sirlariga yo'l qo'ymaslik, uni turli iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan maxsus komissiya faoliyatini yo'lga qo'yish orqali takomillashtirilgan;

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot va tarmoqlardagi ulushini aniqlashda ARIMA modelidan foydalanish asosida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi dinamikasining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish qonuniyatları hamda davlatning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy mexanizm va instrumentlari asosida uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning shart-sharoitlari, mezonlarining mazmun-mohiyatini ochib beruvchi ilmiy-nazariy konsepsiylar tizimlashtirilgan;

jahon tajribasini tahlil qilish asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishbilarmonlik muhitini shakllantirish orqali tasniflashga uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan;

ijtimoiy boylik sifatida iqtisodiy xavfsizlikni ishlab chiqish bo'yicha shartnomaga munosabatlar tizimidagi noaniqliklar hamda aktivlarning nisbatan yuqori darjasи, moslashish va muvofiqlashtirish xarajatlarining o'sishiga olib kelishi, ularni boshqarish esa bozor yoki iyerarxik boshqaruv shaklini oluvchi tashkiliy tuzilma turini tanlashni taqozo etishi ilmiy asoslangan;

ishbilarmon tadbirkorlik muhitini muhofazalash funksiyasi yondashuvi mazmunidan kelib chiqqan holda muhit o'z maydonida bo'lgan obyektni tashqi va ichki funksiyasini salbiy ta'sirlardan himoyalash jihatidan, turli huquqiy kafolatlarning o'rnatilishi, korxonalarining moliyaviy nochor holatga tushib qolishining oldini olish, siyosiy jarayonlarning turli ehtimoliy ta'sirlariga yo'l qo'ymaslik, uni turli iqtisodiy resurslardan foydalanish taklifi asoslangan;

mazmuni jihatdan unumli faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini aks ettiruvchi xususiyat ekanligi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada ilgari surilgan nazariy qoidalar hamda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, monografik tahlil va statistik ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, muhim ilmiy xulosalarni asoslashda zamonaviy ekonometrik usullardan

foydalanimanligi, emperik natijalarining maqsadga muvofiq tahlil va talqin etilganligi, tegishli xulosa, takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida olingan xulosalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan ishbilarmonlik konsepsiyasining qoidalarini to‘ldirish va rivojlantirish, xususan, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari sifatida qo‘llash, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy muammolarni hal etishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot ishlari ilmiy mexanizmini takomillashtirishda foydalinish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini, jumladan, kichik tadbirkorlik subyektlarining ishbilarmonlik muhitini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda foydalinish mumkinligi bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ishbilarmonlik muhit shakllari uslublaridan foydalinish samaradorligini oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “ishbilarmon tadbirkorlik” tushunchasining iqtisodiy mazmunini tadbirkorlik faoliyatini huquqiy, tizimli va innovatsion tarzda boshqarish, yangi imkoniyatlar yaratish, risklarni baholash, tashkiliy, iqtisodiy va tarixiy ixtisoslashuv doirasidagi iqtisodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish asosida aholi bandligi va daromadini oshirishga yo‘naltirilgan, o‘z ichiga ijtimoiy munosabatlarni qamrab olgan mexanizm hamda ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida takomillashtirish bo‘yicha nazariy-uslubiy materiallardan oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Экономическая теория” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalaniman (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 20-oktabrdagi 441-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda aholi bandligi va daromadini oshirishga yo‘naltirilgan, o‘z ichiga ijtimoiy munosabatlarni qamrab olgan mexanizm hamda ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida takomillashtirilgan “ishbilarmon tadbirkorlik” tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkonini yaratilgan;

mazmuni jihatdan samarali faoliyat ko‘rsatayotgan ishbilarmon tadbirkorlarning iqtisodiy faoliyatini baholash uslubi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini aks ettiruvchi faoliyati samaradorligini “xatarli” ($0 < FS_X \leq 59$), “maqbul” ($60 \leq FS_M \leq 69$), “o‘rta” ($70 \leq FS_O \leq 89$), “yuqori” ($90 \leq FS_M \leq 100$) chegaralarida baholash shkalasini kiritish orqali takomillashtirish taklifidan “Sho‘rchi don mahsulotlari” AJda korxona samaradorlik ko‘rsatkichlarini takomillashtirishda foydalaniman (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 30-apreldagi 06/02/03-216-sonli hamda O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 2-maydagi 04-07-27-4806-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ishbilarmon tadbirkorlarning iqtisodiy faoliyatini baholash uslubining baholash shkalasining aniqligini oshirish imkonini yaratilgan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra “ishbilarmon tadbirkorlik muhitini muhofazalash funksiyasi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni muhit maydonida bo‘lgan obyektni tashqi va ichki funksiyasini salbiy ta’sirlardan himoyalash jihatidan, turli huquqiy kafolatlarning o‘rnatalishi, korxonalarining moliyaviy nochor holatga tushib qolishining oldini olish, siyosiy jarayonlarning turli ehtimoliy ta’sirlariga yo‘l qo‘ymaslik, uni turli iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan maxsus komissiya faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali takomillashtirish bo‘yicha nazariy-uslubiy materiallardan oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Экономическая теория” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 20-oktabrdagi 441-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida talabalarda turli iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan maxsus komissiya faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali takomillashtirilgan “ishbilarmon tadbirkorlik muhitini muhofazalash funksiyasi” tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkonni yaratilgan;

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot va tarmoqlardagi ulushini aniqlashda ARIMA modelidan foydalanish asosida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi dinamikasining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan proqnoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan amaliyatga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 30-apreldagi 06/02/03-216-sonli hamda O‘zbekiston savdo-sanoat palatasining 2025-yil 2-maydagi 04-07-27-4806-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot va tarmoqlardagi hamda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi bo‘yicha istiqbol ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash imkonni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, 3 xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ilmiy ish mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti keltirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari yoritilgan, olingan natjalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarini

amaliyotga joriy etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ishbilarmonlik muhitining nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida tadbirkorlik to‘g‘risidagi nazariyalar hamda ishbilarmonlik muhitining mohiyati va funksiyalari mazmuni, maqsadlari, asosiy xususiyatlari, milliy iqtisodiyotda ishbilarmonlik muhitining tadbirkorlik tizimini aniqlashga uslubiy yondashuvlar xususiyatlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga oid xorijiy tajribalar tadqiq etilgan.


“Ishbilarmon tadbirkorlik” ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sanalib, u o‘z ichiga ijtimoiy munosabatlarni qamrab olgan. Unda huquqiy, ruhiy, tashkiliy, iqtisodiy va tarixiy tomonlar mavjud. Mazmuni va mohiyat jihatdan esa barcha uchun unumli faoliyatni anglatadi.

Bugungi kunda ishbilarmon tadbirkor nafaqat o‘z faoliyati orqali foyda orttirish, balki davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlardan foydalangan holda mamlakatdagi ijtimoiy masalalar, xususan, aholi bandligini ta’minalash, milliy boylikni o‘stirish va millatning farovonligi uchun xizmat qilish kabilarda ham katta rol o‘ynaydi. O‘z navbatida, har qanday tadbirkorlik ma’lum bir hududda: mamlakat, viloyat, shahar yoki qishloq miqyosida olib boriladi. Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik faoliyatini samarali olib borish uchun ma’lum bir ishchi muhiti bo‘lishi kerak. Bunday muhit hududlar miqyosida o‘zida ishbilarmonlik funksiyalarini amalga oshirishni mujassamlantiradi va mamlakatning rivojlanish asosini tashkil etadi.

Tadqiqot davomida biz tomonimizdan umumiyligi holda ishbilarmonlik muhiti asosan quyidagi to‘rtta omil: huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi natijasida yuzaga kelishi aniqlandi. Ular ijobjiy yoki rag‘batlantirish ko‘rinishida ham shakllanishi mumkin. Mazkur holda mamlakat yoki mintaqadagi mavjud shart-sharoitlar tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun mos bo‘ladi. Chunki, bunday muhit tadbirkorga amalga oshirayotgan ishlarining natijalari qanday bo‘lishini oldindan ko‘ra bilishiga keng imkoniyat tug‘diradi. Kichik va o‘rta biznes elementlari ishsizlikni kamaytirishga yordam beradi, bu nafaqat jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga, balki iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Kichik biznes o‘rta sinfni shakllantirishga yordam beradi, bu esa bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy tizimlarning barqarorligini mustahkamlaydi. Ular, shuningdek, iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga va sog‘lom raqobatning yuzaga kelishiga yordam beradi. Ta’kidlashimiz lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik muhiti, ishchan muhit va ishbilarmonlik muhiti bir xil mazmunda qo‘llanilmoqda. Ammo bu tushunchalarni o‘xhash jihatlari ko‘p bo‘lishiga qaramasdan ularning ma’lum funksiyalariga ko‘ra farq qiladi.

Ishbilarmonlik muhитini takomillashtirish tizimli ravishda boshqarilishi lozim bo‘lgan jarayondir. Ularning asosiy tadbirkorlik faoliyati subyektlariga ta’sir qiladigan choralardan emas, balki shunday subyektlarning tarkib topishi yo‘lida qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo‘lishi kerak. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi uchun davlat tomonidan ijtimoiy jarayon sifatida tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ular uchun qulay ishbilarmonlik muhiti shakllantirish orqali

milliy boylik va milliy farovonlikni o'stirish, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga ta'sirini ko'rsatadi.



1-rasm. Ishbilarmon tadbirkorlik muhitining shakllanishi⁵

Ishbilarmonlik muhiti tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u tadbirkorlik subyektlarining shakllanishi va samarali faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir. Uning asosiy vazifasi tadbirkorlik subyektlarining tarkib topishi yo'lida qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo'lishi kerak. Yuqoridaq 1-rasmda davlat tomonidan ijtimoiy jarayon sifatida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ular uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish orqali milliy boylik va milliy farovonlikni o'stirish, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga ta'sirini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta bizneslar samarali va eng dinamik rivojlanayotgan sektor hisoblanadi. Yirik korporatsiyalar, katta innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy, material va mehnat resurslarini jalb qilish imkoniyatlarida mutlaq ustunlikka ega bo'lib, ko'plab sohalar va faoliyat turlarida aniq afzalliklarga ega. Shu bilan birga, ko'plab sohalarda eng optimal va samarali tashkilot shakli kichik biznesdir. Shuningdek, agar ijtimoiy ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan tadbirkor faol subyekt hisoblansa, unda tadbirkorlik jarayonining o'zi, uning samaradorligi va mazmuni nuqtayi nazaridan iste'molchi faol rol o'ynaydi. Amalda ko'p hollarda ishbilarmonlik muhitining ma'lum bir omili tadbirkorning ish natijalariga asosiy ta'sir ko'rsatadi deb bo'lmaydi. Chunki, tadbirkorni ko'proq ishbilarmonlik muhitini belgilovchi omillarning o'zaro bog'liqligi qiziqtiradi. Ishbilarmonlik muhitinidan, kishilarning tadbirkorlik faoliyatini boshlash va u bilan shug'ullanish

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

xohishi va imkoniyatlariga ta'sir etuvchi umumiy iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, siyosiy omillarni o'z ichiga olsa, ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyatini boshlash jarayonlarini yengillashtiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi (1-jadval) funksiyalarni nazarda tutadi.

1-jadval

Ishbilarmon tadbirkorlik muhitini muhofazalash funksiyalari⁶

Nomi	Qisqacha mazmuni
Parvarishlash funksiyasi	Muhitning o'z maydonidagi obyektlar muhofazasini shunchaki ta'minlab qolmay, balki ularni parvarishlashi, ya'ni ularning o'rnini imkon boricha ijobjiy pozitsiyasini ta'minlashi lozim
Ta'minlash funksiyasi	Muhitni o'z maydonidagi obyektlarning samarali va to'laqonli faoliyatini ta'minlashi orqali namoyon bo'ladi
Faollashtirish funksiyasi	Muhit o'z maydonidagi obyektni davlatning ma'lum dasturlarida belgilangan vazifalani bajarilishini ta'minlashi lozim
Rag'batlantirish funksiyasi	Muhit o'z maydonidagi obyektni rag'batlantirishi, masalan, tadbirkorlik faoliyati ko'rsatkichlari yaxshilangan holda uning imkoniyatlari ham kengayib borishini ta'minlashi zarur
Jalb etish funksiyasi	Muhit o'z maydoniga yangi ishtirokchilar bilan ta'minlashi lozim. Bu esa albatta to'g'ri raqobat muhini vujudga keltiradi

Muhofazalash o'z maydonida bo'lgan obyektni tashqi va ichki funksiyasi salbiy ta'sirlardan himoyalaydi. Bunday himoyalash faqat huquqiy jihatdan, ya'ni turli huquqiy kafolatlarning o'rnatilishi bilan cheklanmay, balki boshqa jihatlar kesimida ham ta'minlanadi. Masalan, iqtisodiy jihatdan – korxonalarining moliyaviy nochor holatga tushib qolishining oldini olish; siyosiy jihatdan – siyosiy jarayonlarning turli ehtimoliy ta'sirlariga yo'l qo'ymaslik; tashkiliy jihatdan – korxona faoliyatini tashkil etish, uniturli iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash kabi mexanizmlarning to'liq ishlashi orqali ham namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyatining kelajagi ishbilarmonlik muhiti bilan belgilanadi, u esa jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga iqtisodiy mustaqillik, tadbirkorlar sinfi, iqtisodiy aloqalarda bozorning ustuvorligi, tadbirkorlik kapitalini mujassamlantirish sharoitining mavjudligi va kerak bo'lgan resurslarni ishlatish imkonyati kiradi. Tadbirkorlikning ijtimoiy mustaqillik darajasi bozorda vujudga kelayotgan mustaqil korxona va tashkilotlar soni bilan o'lchanadi.

Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlari – bu ishlab chiqarish jarayonida faoliyat yurituvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi birliklardir. Ular ishlab chiqarish obyektlaridan (mulk, mehnat, texnologiya, kapital) foydalanadi va iqtisodiyotning eng quyi, shu bilan birga hal qiluvchi bo'g'inini tashkil etadi.

Bugungi kunda shuni alohida ta'kidlash kerakki, ko'plab rivojlangan mamlakatlardagi barcha faoliyat yuritayotgan biznes subyektlarining deyarli 70-90 foizi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi. Mehnatga layoqatli aholining ko'p qismi ushbu sohada faoliyat olib boradi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar yalpi ichki mahsulot (YaIM)ida ham ushbu sohaning o'rni alohida ajralib turadi.

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Quyidagi jadval (2-jadval) ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, har bir mamlakatda kichik biznes sohasi muhim rol o'ynaydi. Aholini ish bilan ta'minlash, ularni daromadini oshirish hamda mamlakatda ishbilarmonlik muhitini oshirishda, shuningdek davlat iqtisodiyotini yuqori ko'tarishda kichik biznes sohasi asosiy vosita bo'lib kelmoqda.

2-jadval

Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotda tutgan o'rni (2024-yil holatiga, %da)⁷

Davlatlar	Yalndagi ulushi	Sohada band aholi
AQSh	55	53
Yaponiya	62	71,7
Belgiya	68	52
Rossiya	24,2	27
Finlandiya	52	80
Daniya	34	57
Fransiya	49,8	52,1
Germaniya	40,7	50,3
Irlandiya	23,8	54
Italiya	58	73
Niderlandiya	42	58
Norvegiya	39	67
Ispaniya	65,8	71
Shvetsariya	21	52
Buyuk Britaniya	49,3	55,5

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini ularning tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra, ular yollab ishlatayotgan ishchi-xodimlarning soniga, tadbirkorlik faoliyatining turiga, tadbirkorlik faoliyatini yakka o'zi yoki jamoa bo'lib amalga oshirishiga qarab tasniflash mumkin. O'zbekistonda esa kichik biznes subyektlari faoliyat sohasi va ushbu sohada ishlovchilar soniga qarab belgilanadi.

Aytish mumkinki, bugungi kunda sanoati rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida kichik biznes asosiy rol o'ynayotganligi ham beziz emas. Bunda, asosan, kichik biznes subyektlarining o'ziga xos faoliyati va xususiyatlarini aniqlashda tizimli yondashuvdan keng foydalanish lozim bo'lib, ular quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

kichik biznes mustaqil subyekt bo'lib, u yirik korxonaning ma'lum bir qismi hisoblanmaydi;

bozorning judayam kichik ulushiga ega bo'lib, unda nisbatan kam miqdordagi mahsulotlar ishlab chiqariladi;

aksariyat korxonalarini tadbirkorlarning o'zi boshqaradi, boshqaruvi bo'limlari shakllantirilmaydi;

tadbirkor foydasining asosiy qismini tadbirkorlik daromadi tashkil qiladi.

⁷ Xorijiy mamlakatlar statistik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Xususiy tadbirkor mulkdori korxonaning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda xususiy korxonaning majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo‘ladi.

Xususan, A.Smit tadbirkorni foyda olish uchun biror-bir tijorat g‘oyasini amalga oshirish maqsadida tavakkalchilik bilan ish ko‘rvuchi mulkdor, deb ta’riflaydi.

Fikrimizcha, “ishbilarmon tadbirkorlik muhitini muhofazalash funksiyasi” deganda har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati mazmunini shakllantirishga va uning boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan o‘zaro munosabatlariaga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan tashqi sharoitlar, faoliyat omillari va muhit xususiyatlari majmui tushuniladi.

Bugungi kunda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bиринчи navbatda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag‘batlantirish masalalariga keng e’tibor berilmoqda.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekistonda ishbilarmonlik muhiti va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hozirgi holati tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ishbilarmonlik muhitining o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining tendensiyalari, O‘zbekistonda ishbilarmonlik muhitini holati va kichik biznes subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari xo‘jalik faoliyati va ishbilarmonlik muhitiga ta’sirining ekonometrik tahlil usullari bilan bog‘liq holda tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asl maqsadi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va shu asosda aholi turmush farovonligini muttasil yaxshilab borishga erishishdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimiz hukumati iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bizning fikrimizga ko‘ra, xo‘jalik subyektlari o‘zlarining muayyan muhitini yoki atrofini tashkil etuvchi muayyan sharoitlarda ishlaydi. Hech bir tadbirkor yoki tashkilot o‘z faoliyatini bozorning boshqa ishtirokchilaridan yoki mavjud ichki va tashqi omillardan qat’iy nazar, alohida amalga oshira olmaydi. Natijada, tadbirkorlikning ishbilarmonlik muhiti o‘rtasidagi munosabatlarni farqlash lozim bo‘ladi.

Tahliliy yondashuv nuqtayi nazaridan tadbirkorlikning ishbilarmonlik muhiti korxona faoliyatiga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar majmuidir. Ichki omillar ma’lum bir korxonaning harakatlari bilan belgilanadi va boshqaruv xodimlari tomonidan tartibga solinishi mumkin. Tashqi omillar ma’lum bir korxona faoliyatiga bog‘liq emas, amalda korxona ta’siriga tushmaydi, lekin uning ishi va natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ishbilarmonlik muhiti murakkab tuzilishga ega bo‘lganligi

sababli, uning barcha tarkibiy elementlari uchun ular ham o‘ziga xos omillar majmuini ifodalaydi.

Jahon bankining Toshkentdagи vakolatxonasi matbuot xizmati xabariga ko‘ra, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasining boshqa to‘rtta davlati, jumladan, Tojikiston, Ozarbayjon, Qирғизистон va Kosovo bilan birgalikda O‘zbekiston 2024-yilda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo‘yicha eng katta yutuqlarga erishgan 20 ta davlat qatoridan joy oldi(3-jadval).

3-jadval

“Biznes ready 2024” mintaqalar bo‘yicha biznes yuritish qulayligi reytingi⁸

	Mintaqa	DB 2023	DB 2024
1.	Afrika (Saxaradan quyi)	50,9	51,8
2.	Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	58,4	60,2
3.	Sharqiy Osiyo va Tinch okeani	62,7	63,3
4.	Yevropa va Markaziy Osiyo	71,8	73,1
5.	Lotin Amerikasi va Karib dengizi	58,8	59,1
6.	OECD	78,2	78,4
7.	Janubiy Osiyo	56,3	58,2

Yurtimizda ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar o‘zining ijobiy natijasini berayotganini ta’kidlash joiz. Jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra, mamlakatimiz 2024-yilda biznesni yuritish sharoiti bo‘yicha reytingda 8 pog‘onaga, soliqqa tortish borasida 61 pog‘onaga yuqoriga ko‘tarildi. BMTning taraqqiyot dasturining bahosiga ko‘ra, O‘zbekiston so‘nggi yilda biznesni yuritishni yengillashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar bo‘yicha yetakchi o‘nta mamlakat qatoridan joy oldi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari ishlab chiqarish hajmidagi salmog‘ining oshishi ham namoyon bo‘lmoqda. Jumladan:

investorlarni himoya qilish sohasida O‘zbekistonda aksiyalari fond birjasida sotiladigan kompaniyalarning mulkchilik va nazorat tuzilmalari bilan bog‘liq masalalar qonun bilan aniqlashtirildi;

soliqlar kamaytirildi va korxonalarini tasniflashning yangi mezonlari joriy etildi; yangi tasniflash tizimi kichik tadbirkorlik subyektlariga har bir xodim uchun qat’iy belgilangan stavkada, lekin belgilangan eng kam ish haqining 65 foizidan kam bo‘limgan miqdorda yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lash imkonini beradi;


elektron deklaratsiyalar, shuningdek, bir qator eksport sertifikatlari bo‘yicha to‘lov tizimini joriy etish orqali tashqi savdo tartib-taomillari soddallashtirildi va tezlashtirildi, bu eksport hujjatlarini tayyorlash va taqdim etish vaqtini qisqartirdi.

O‘zbekiston “To‘lovga layoqatsizlikni bartaraf etish” ko‘rsatkichidan tashqari deyarli barcha reyting ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘z ko‘rsatkichlarini yaxshiladi.

Muallifning fikricha, hozirgi kunda jahon mamlakatlarida davom etayotgan moliyaviy iqtisodiy inqiroz tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi yangi bosqichi uchun xos bo‘lgan yangi yo‘nalish tashkil etish zaruratini tasdiqladi, ya’ni yirik korxonalardan chetlashish va kichik firmalarni ko‘paytirish lozim. Tadbirkorlik

⁸ <https://russian.doingbusiness.org/ru/data/doing-business-score> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

faoliyatining bunday shakli ilmiy-texnika taraqqiyotining yutuqlaridan samarali foydalanish va iste'molchilar talabini o'z vaqtida qondirish imkonini beradi.



2-rasm. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi respublika bo'ylab tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlari asosida 2025-yil fevral oyidagi biznes muhitini tahlili⁹

2025-yil Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi respublika bo'ylab tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlari asosida fevral oyida umumiy biznes muhiti indeksi 2 bandga oshib, 54 bandni (-100 dan +100 gacha bo'lgan shaklda) tashkil etdi va bu O'zbekistondagi biznes muhitining holatini ijobiy, deb baholagan. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 48 foizi biznes muhitining joriy holatini "qoniqarli" deb baholagan, bu yanvar oyiga nisbatan 5 foiz yuqori bo'lib, ishbilarmonlik faoliyatini idrok etish yaxshilanganligini ko'rsatmoqda.


Fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmog'ini modellashtirishda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi ta'sirini ustuvor inobatga olish kerak. Fikrimizni yanada qo'llab-quvvash maqsadida masalaga Respublikamiz misolida yondashilganda, quyidagilar aniqlandi: Respublikamiz kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi va kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi hajmi o'rtasidagi korrelyatsion tahlil o'ta yuqori bog'lanish zichligini ko'rsatdi: $r=0,928$. Shuningdek, tajribalar shuni ko'rsatdiki, aksar kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi va kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi hajmi bilan zich bog'langan. Korelyatsiya koeffitsiyenti va p-qiymat ahamiyatlilik darajalari:

Pearson correlation of YaIM va bandlik = 0,928

P-Value = 0,003

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlili shuni ko'rsatdiki, ayrim omillarda avvalgi davr ko'rsatkichlarining keyingi davrga ta'siri (lag effekti) mavjud. Bu holat iqtisodiy sikllar, bozor moslashuv jarayonlari hamda institutsional omillar bilan izohlanadi.

⁹ <https://review.uz/uz/post/biznes-klimat-uzbekistana-v-ocenkax-ceir-dinamika-i-klyucheve-faktor>



3-rasm. Vaqtli qator statsionar 1-farqlari chizmasi¹⁰

Yuqoridagi holatdan kelib chiqqan holda vaqtli qatorlarni tahlil qilishda avtoregressiya (AR) va xatoliklarning o‘rtacha ta’siriga asoslangan MA (Moving Average) yondashuvlarini, shuningdek, ARIMA modelidan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi. Demak keyingi navbatda biz berilgan ma’lumotlar asosida bandlik darajasini yillarda aniqlaymiz. Tajribalarda birinchi farqlar statsionarligi ma’lum bo’ldi (3-rasm).

4-jadval

Regression tahlil natijalari¹¹

Model : ARIMA, ishlatalgan ko’rsatgichlar 2011-2023 (T = 13)

Bog’liq o’zgaruvchi: (1-L) Y

Standart xatolar quyidagilarga asoslanib hisoblanadi Gessiana

	Koeffitsient	St. xatolik	z	p-qiyimqt	
phi_1	1,05244	0,0808737	13,01	<0,0001	***
phi_2	0,286484	0,125949	2,275	0,0229	**
phi_3	-0,723127	0,0713329	-10,14	<0,0001	***
theta_1	-1,84796	0,437762	-4,221	<0,0001	***
theta_2	1,00000	0,408345	2,449	0,0143	**

O‘rtacha bog’liq o’zgaruvchilar	-0,023077	St.ga bog’liq o’zgaruvchi	0,879540
O‘rtacha innovatsiyalar	0,001845	St. innovatsiyasi	0,312338
R-kvadrat	0,957231	Tuzatilgan. R-kvadrat	0,935846
Log. ehtimollik	-8,271860	Krit. Akaike	28,54372
Krit. mezoni	31,93342	Krit. Xennana-Kuinna	27,84698

	Haqiqiy qisim	Xayoliy qism	Modul	Chastota
AR	Koren 1	0,8889	0,4591	1,0004
	Koren 2	0,8889	-0,4591	1,0004
	Koren 3	-1,3816	0,0000	1,3816
MA	Koren 1	0,9240	-0,3824	1,0000
	Koren 2	0,9240	0,3824	1,0000

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹¹ Gretlda muallif tomonidan shakllantirilgan.

Avtokorrelyatsiya (ACF) va xususiy avtokorrelyatsiya (PACF) modelning biror-bir tartibiga dalolat qilmadi.

Shu sababli bir necha turdag'i ARIMA model tartiblarini tajribadan o'tkazdik. Natijada, ARIMA (3,1,2) modeli tuzildi. Modelning umumiy ko'rinishi:

$$\text{ARIMA}(p;d;q) = \text{ARIMA}(3;1;2)$$

$$\Delta^1 y_t = 1,05244 + 0,286484 \Delta^1 y_{t-1} - 0,723127 \Delta^1 y_{t-2} - \\ - 1,84796 \Delta^1 y_{t-3} + 1,00000 e_{t-2}$$

Keyingi bosqichda fisherning Z-mezoni bo'yicha parametrлarni baholaymiz.

5-jadval

Fisherning Z-mezoni bo'yicha parametrлarni baholash¹²

<i>z</i>	<i>p-znachenie</i>	
13,01	<0,0001	***
2,275	0,0229	**
-10,14	<0,0001	***
-4,221	<0,0001	***
2,449	0,0143	**

Yuqoridagi 5-jadvaldan ko'riniб turibdiki, fisherning z-mezoni bo'yicha ahamiyatlari hisoblanadi.

Navbatdagi bosqichda O'rtacha absalyut foizli xatoni, ya'ni (MAPE)ni topamiz (6-jadval). Ushbu model bo'yicha approksimatsiya xatoligi 0,31483 foiz ekanligi ma'lum bo'ldi.

6-jadval

Approksimatsiya xatoligi¹³


Modelni baholash uchun foydalanilgan diapazon: 2011 – 2023-yillar			
Qoldiqlarning standart xatosi = 0,312338			
Y	turar-joy	qoldiqlari	
2011 75,1000	74,7959	0,304084	
2012 75,6000	75,5186	0,0813894	
2013 76,7000	76,4111	0,288944	
2014 77,6000	77,3168	0,283206	
2015 77,9000	78,0711	-0,171056	
2016 78,2000	78,1536	0,0463853	
2017 78,0000	77,8094	0,190647	
2018 76,3000	77,1665	-0,866533	
2019 76,2000	76,0297	0,170320	
2020 74,5000	74,6892	-0,189233	
2021 74,5000	74,4196	0,0804206	
2022 73,9000	73,7776	0,122449	
2023 74,0000	74,3170	-0,317036	

Eslatma: * qoldiq 2,5 standart xatolikdan katta ekanligini bildiradi
O'rtacha xato (ME) 0,0018451
O'rtacha kvadrat xatosi (RMSE) 0,31234
O'rtacha mutlaq xato (MAE) 0,23936
O'rtacha mutanosiblik xatosi (MPE) 0,0013405
O'rtacha mutlaq mutanosiblik xatosi (MAPE) 0,31483
Theil's U-statistika (Theil's U) 0,36631

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shuningdek, barcha koeffitsiyentlari 0,1 erkinlik darajasida statistik ahamiyatga ega bo‘ldi. Demak prognozimiz natijasiga ko‘ra, kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi 2030-yilga kelib 77,4909 foiz bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa 2023-yil davrdan 3,4909 foizga oshishini bildiradi (7-jadval).



4-rasm. Prognoz ko‘rsatkichlari¹⁴

